

2025-yil 2-oktabr

2034-yilga borib kapronning jahon bozori hajmi 28,5 milliard dollarga yetishi mumkin



Yarimkristal poliamid polimeri — kapron (neylon 6)ning jahon bozori 2024-yilda 16,6 milliard dollarni tashkil etdi va taxminlarga ko'ra, 2025-yilda 17,5 milliard dollarga, 2034-yilga kelib esa 28,5 milliard dollargacha o'sishi mumkin. Bu davr mobaynida o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5,57% ni tashkil etadi. Bu haqda Precedence Research agentligi o'z tadqiqotida ma'lum qilgan.

Urbanizatsiya va industrializatsiya kabi makroiqtisodiy omillar bozorning kengayishida muhim rol o'ynamoqda, ayniqsa so'nggi yillarda yetakchi bo'lib kelayotgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasida. 2025-2034-yillar oralig'ida esa bozorning eng tez o'sishi Shimoliy Amerikada kuzatilishi kutilmoqda.

Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, mahsulotning ishlab chiqarilish shakli bo'yicha 2024-yilda eng katta ulush tolalar segmentiga to'g'ri kelgan. Qo'llanilish sohasi bo'yicha esa tekstil va kiyim-kechak segmentlari yetakchi o'rinni egallagan. Neylon 6 bozorida daromad o'sishi, asosan, uning avtomobilsozlik va tekstil sanoatida qo'llanilishining ortishi, shuningdek, barqaror ishlab chiqarish

texnologiyalaridagi ilg'or yutuqlar bilan bog'liq.

“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2034-yilga-borib-kapronning-jahon-bozori-hajmi-28-5-miliard>